

JIZZAX VOHASIDAGI QOYATOSH SURATLARI

Sh.Jonuzokov,

JDPU, tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax vohasi qoyatosh rasmlarining o'rganilishi, o'rganish bo'yicha arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, qoyatosh rasmlarining vujudga kelishi hamda bunga sabab bo'lgan omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, qoyatosh rasmlari, arxeologik qazilmalar, ilmiy izlanish natijalari, tadqiqotlar.

Jizzax tarixi va ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham bayon qilingan. Asarda u Jizzax, Zomin, Pishag'or, Ravot, Xo'jandda bo'lganligini yozib qoldiradi. Bobur 1501 yili Shayboniyxondan zarbaga uchrab, Andijonga qaytishida Jizzaxda bo'lganligini quyidagicha yozadi: "Kech nomoz digar Ilono'ttida tushub, ot o'lturib etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindirib otlanduk. Tongdin burunroq Xaliliya (hozirgi Qaliya qo'rg'oni hududi) kentiga kelib tushtuk. Xaliliyadan Dizak kelildi, ul fursatta Dizakta Hofiz Muhammadbek duldoyning o'g'li Tohir duldor edi. Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon... Andoq usrattin mundoq va arzonliq va baliyattin mundoq amonliqqa kelduk" bitiklari Jizzax chorva, bog'dorchilik va poliz mahsulotlariga boy va arzonligi, xalqining mehmondo'stligiga bergan baho hisoblanadi. VII-XII asrlarda Jizzax vohasi hayoti birmuncha rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligi taraqqiy qilib, shahar yaqinidagi Mirasmanda jahon bozorida, shu yerda tayyorlangan jun matolar, jun liboslar, pilla, temir va metal buyumlar, Ustrushona feruzasi katta mavqega ega bo'lgan. Arab geografi va sayyohi Ibn Havkal o'zining "Kitob masolik al-mamolik" ("Mamlakatlar yo'llari haqida kitob") asarida Mink va Mirasmanda ruda qazib olish va qayta ishlash rivojlanganligi, bu yerda metallardan tayyorlangan asbob-uskunalar Xuroson,

Bag'dod va Eronda keng tarqalganini yozib qoldiradi. Filologiya fanlari doktori, professor Fayzulla Boynazarov o'zining "O'rta Osiyoning antik davri" kitobida, yunon tarixchisi Arrianning "Iskandar yurishi" nomli kitobida ham Jizzax shahri Gazo nomi bilan tilga olinganini ta'kidlaydi. Farang solnomachisi G.I.Drayzer ham o'zining bundan yuz yil burun chop etilgan "Ellinizm tarixi – Maqduniy tarixi" deb nomlangan kitobida Jizzax shahrini Gazo nomi bilan ataydi. Tarixchi olim Yu.F.Buryakov, A.A.Gritsina, B.D.Kochiyevlarning "Drevniy Zaamin" nomli kitobida ham Gazoni hozirgi Jizzax shahri deb tilga olinadi. Jizzax viloyatining hududi shimoli-sharqda Qozog'iston Respublikasi, sharq tomondan Sirdaryo viloyati, g'arb va janubi-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Viloyat Sirdaryo va Zarafshon daryolari atrofida joylashgan, O'rta Osiyoning janubi-sharqidagi Turkiston, Molguzar va Nurota tizma tog'lari tarkibiga kirib, maydoni 20,5 ming kv.km ni tashkil qilib, serhosil, unumdor tekisliklar, yaylovlardan iborat. Mirzacho'l tekisligi Turkiston tog'ining janubiy yonbag'ri Sangzor vodiysining tabiiy-geografik joyidan o'rin olgan. Mirzacho'l yerlari Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tarkibiga kiradi. So'nggi yillar mobaynida Samarqand arxeologiya institute olimlari tomonidan Jizzax viloyati hududlarida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Jizzax va G'allarorol vohalarida, Xarakana (G'allaorol tumani) majmuasida antik va o'rta asr yodgorliklari – Oydinsoytepa, Qing'irtepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Nushkent singari yodgorliklarni ochib o'rganishlari natijasida bu hududda istiqomat qilgan ibtidoiy odamlarning hayot tarji, xo'jalik faoliyatiga doir ma'lumotlar to'plandi. Sangzor daryosi havzasidagi vodiya qadimdan aholi yashaganligi, dehqonchilik, chorvachilikka asoslangan o'troq va yarim-o'troq hayot qaror topganligi ma'lum bo'ldi. Arxeologik qazilmalar paytida topilgan qadimgi ashyoviy dalillar Neolit (yangi) tosh davridayoq Jizzax vohasida, xususan, Sangzor vodiysi, Ilono'tti darasi, Tuzkon hududlarida aholi manzilgohlari bo'lganligini ko'rsatadi. Demak, Sangzor vodiysidagi yerlarning ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilishi qariyb V ming yillik tarixga ega. Neolit (yangi) tosh davrida kishilar tasavvurlari va e'tiqodlarida keskin o'zgarish yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayonni

Molguzar va Nurota tizma tog'larida eng qadimgi suratkash ajdodlarimizning qoyatosh bitiklari, rang tasvirlari ham tasdiqlaydi. 1956 yili akademik A.R.Muhammadjonov va arxeolog M. Xujanazarov hamkorlikda Jizzax shahri yaqinidagi Sayxonsoy va Taqatosh manzillaridagi qoyatoshlarga suratkash ajdodlarimiz tomonidan ov manzaralari, odamlarning boshqa xil maishiy turmush jarayonlari o'yib ifodalangan rasmlar galereyasini topib o'rgandilar. Tadqiqotchilar Sayxonsoyning chap qirg'og'idagi qal'alardan bir necha metr, 12, hatto 15 metr balandlikdan o'rin olgan 683 ta turli xil hayvonlar — tog'echkilar, arxar, butu, ot, yovvoyi chuchqa, jayron, bo'ri, qoplon va itning toshga o'yib bitilgan ko'pgina geometrik shakllarini, ovchilarning yoy bilan ov qilish jarayonlari tasvirga tushirilgan tosh bitiklarni topib o'rganishga muvaffaq bo'ladilar. Sayxonsoy atrofidan o'rin olgan Taqatoshda balandligi 6 metr, eni 4 metr toshga o'yib tushirilgan rasmlar ham topilgan. Bu rasmlarning asosiy qismi o'tkir asboblar vositasida uzoq yillar davomida tarashlab o'yilgani shaklda olimlar bir xulosaga keladilar. Bu rasmlarning eng qadimgi nusxalari quyosh va shamollar ta'sirida qorayib ketgan bo'lsa-da, quyosh tikka kelganda ko'zga yaxshi tashlanadi. Qoyatoshdagi ushbu rasmlarning eng qadimgilari davriy nuqtai nazardan miloddan avvalgi IV ming yilliklarda bitilgan, degan xulosaga kelingan. Tadqiqotchi olimlar A.Muhammadjonov va M.Xo'janazarovlar tomonidan topilgan Sayxonsoy va Taqatoshdagi qoyatosh bitiklari va rasmlar Sangzor, Jizzax vohasida ovchilik, chorvachilik bilan kun kechirgan qadimgi odamlarning turmush tarzi, hayvonot olami, ov manzaralari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. 1966-1974 yillari arxeolog A. Kabirov tomonidan ham qoyatosh bitiklarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. 1987 yili Samarqanddagi Arxeologiya institutida Molguzar va Nurota tog'larida qoyatosh bitiklarini o'rganish guruhining tashkil topishi, qoyatosh rasmlarini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Arxeologlar tomonidan Jizzax vohasi, Xatirchi va Nurota tumanlarida haligacha ma'lum bo'lmagan 30 dan ortiq, qoyatosh yodgorliklari topib o'rganildi. Birgina Xatirchi tumanidagi Oqsoqolota soyi qoyatoshi kamarlaridan 500 dan ortiq qizil rangdagi bo'yoq bilan ishlangan qadimgi qoyatosh suratlari topib o'rganilib, qoyatosh

rangli suratlari cho'kich yordami bilan urib, cho'kichlab, tirnab ishlangani aniqlandi. Bu qoyatosh rasmlari miloddan avvalgi I ming yillikda va milodning I ming yilligida ishlanganligi qayd etiladi. Sangzor vodiysida istiqomat qilgan odamlar dastavval tabiiy oqova suvlar yoqalarida, Turkiston, Molguzar, Nurota tog'laridan oqib keladigan soylar, ko'llar atrofida, chorva mollari va odamlar suv icha oladigan, qiynalmasdan ekinlarni sug'orish imkoniyati bo'lgan hududlarda o'troq va yarimo'troq tarzida istiqomat qilishgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, ibtidoiy odamlarning mehnat qurollari juda oddiy bo'lib, yirik hayvonlarni ovlashda qiynalganlar. Shu sababli kishilar jamoaga birlashib hayot kechirishga majbur bo'lganlar. Chunki yolg'iz odamlar xayvonlarni ovlay olmaganlar. Ibtidoiy odamlar yirik jamoaga birlashib, katta kuchga aylanib ov qilishga, tabiatdagi yuz beradigan qiyinchiliklarni, ofatlarni birlashib engishga muvaffaq bo'lganlar. Ibtidoiy odamlar toshdan, daraxt shoxlaridan yasalgan mehnat qurollari yordamida mayda hayvonlarni ovlaganlar, o'simlik ildizlarini kovlab olib, yegulik topishga muvaffaq bo'lganlar. Tabiat odamlarga nimani in'om qilgan bo'lsa, o'sha tayyor narsalarni o'zlashtirganlar. Bu jarayonda odamlarning o'zlari xam jismonan, ham aqlan takomillashib borganlar. Arxeologlar O'zbekistonda o'rta paleolit davri yodgorliklarini topib o'rganishga muvaffaq bo'lganlar. Bu yodgorliklar birgina ochiq joydagi manzilgohlarda bo'lmay, balki g'orlardan ham topilgan. Ana shunday g'orlardan biri Boysun tog'laridan topilgan Teshiktosh g'ori bo'lib, u o'rta paleolitga xos neandertal tipidagi odamlarning manzilgohi bo'lganligi aniqlangan. G'ordan o'rta paleolit davriga xos neandertal odamlari suyaklari topilgan. Neandertal odamlarining mazkur makoni muste davriga, ya'ni 100-40 ming yilliklarga oid bo'lib, neandertal odamlari tomonidan yasalgan 3000 ga yaqin keskich, arralagich va chopqi kabi tosh qurollari, arxar, kiyik, yovvoyi ot, qoplop, quyon va boshqa hayvonlarning suyaklari topilgan. O'rta paleolit-muste davriga oid yodgorliklar Toshkent vohasidagi Xujakent, Obirahmat g'orlari, Samarqand yaqinidagi Omonquton, Taqalisoyda ham topib o'rganilgan. Bu davrda odamlar olovni kashf qilib, go'shtni gulxanda pishirib yeyishni, yirtqich hayvonlarni olov bilan qo'rqitishni o'rganganlar. So'nggi paleolit davri odami manzilgohlari esa

Samarqand, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida, O'rta Osiyoda 30 dan ortiq joylarda topilib, o'rganilgan. So'nggi paleolit davri oxirida odamlarning ibtidoiy to'dasi o'rnida urug'jamoalari (matriarxat, patriarxat) vujudga keladi. Urug'jamoasi a'zolari birgalikda mehnat qilgan, mehnat mahsulotlari umumiy mulk hisoblangan. Urug'jamoasi ishlariga oqsoqol (jamoaning tajribali, hurmatli a'zosi) rahbarlik qilgan. Jizzax viloyatida paleolit davri odamlar hayoti, turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi manzilgohlari hali yetarli topib o'rganilmagan va so'nggi yillargacha umuman tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida Samarqanddagi Arxeologiya institutining Jizzax ekspeditsiyasi guruhi dastlabki arxeologik qidiruv ishlarini amalga oshirmoqdalar. Arxeologlar Forish tumanining Chimqurg'on jamoa xo'jaligi hududidagi qum karyerlari va uning atrofidagi yerlarni o'rganib, Qoratog'g'ori atroflaridagi yer qatlamlari paleozoy davrida shakllanganini aniqlashdi. Chunki, paleozoy davri tektonik harakatlarning (yer silkinishlarining) o'ta faolligi bilan ajralib turadi. Bu davrdagi yerning ustki qobig'ida qattiq egilishlar, yorilishlar oqibatida katta hajmli chuqurliklar hosil bo'lib, suv havzalari, ko'llarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qoratog'etaklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qum karyeri aynan shunday suv havzalarining qurib qolgan o'rni bo'lganligi isbotlandi. Guruh tarkibidagi tarixchi-arxeolog mutaxassislarning qayd qilishicha, Forish tumani, xususan, Jizzax viloyati hududida yer ustining tektonik harakatlari juda uzoq davom etganligini, shu boisdan, bu yerda egilish, bukilish, ko'tarilmalar paydo bo'lganligini aniqladilar. Bundan tashqari, qum karyeri atrofida bundan 100-40 ming yil avval o'rta paleolit ibtidoiy odamlar hayoti bilan bog'lik bo'lgan tosh qurollari topilgan. Topilmalar orasidagi qayroqtoshdan ishlangan, hajmi 54x53x21 mm bo'lgan tosh quroli — nukleus g'oyat ahamiyatli hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ushbu nukleus tosh qoldig'idan ibtidoiy ustalar bir necha pichoqsimop tosh qurollari yasab olganligi isbot qilindi. Jizzax hududidan topilgan tosh asriga oid dastlabki osori atiqalar o'lkamiz tarixini, uzoq o'tmishga borib taqaluvchi madaniyatini 100-40 ming yilga qadimiylashtirib, odamlar yashagan qadimiy o'lkalar safidan o'rin olishini taxmin qilishni ko'rsatmoqda. Balki Jizzax viloyati hududida yashagan

ajdodlarimiz Zirabuloq Omonquton hududlarida yashagan odamlar bilan bevosita madaniy aloqada bo'lgan bo'lishlari ham mumkin degan xulosaga kelingan. Jizzax vohasida, Sangzor daryosi bo'ylarida sug'orma dehqonchilik rivojlanadi. Hunarmandlar yasagan mis, bronza va temirdan yasalgan mehnat quroliga ega bo'lgan odamlar tomonidan yerga ishlov berish yaxshilanib bordi. Chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ekin maydonlarining kengayishi tufayli qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish yuzaga keladi. Bu hol chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishiga, hunarmandchilikning rivojlanishiga, mehnat taqsimotining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. O'rta Osiyo hududida qadimgi yuksak madaniy hayot yo'lini bosib o'tgan So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm, Qang'va Parkana kabi davlatlar vujudga keladi. Xitoy solnomalarida bayon qilinishicha, bu davlatlar qatorida Ustrushona davlati ham yuzaga keladi. Milodiy III—IV asr boshlariga kelib, Ustrushona madaniyati taraqqiy etib, tarixda “400 qal'a mamlakati” deb nomlanadi. Ustrushonada yirik kent va qo'rg'onlar o'rnida ilk o'rta asr shaharlari, mudofaa va sug'orish inshootlari yuzaga kela boshlagan. Milodning VI asriga oid Xitoy va Arab manbalarida Ustrushona davlatining chegarasi quyidagicha bayon qilinadi: “Ustrushona tubdan Samarqand, shimoldan Shosh, janubdan Kesh, So'g'diyona, sharqdan esa Farg'ona o'rab turgan hududlardan iborat bo'lgan”. Al Istaxriyning guvohlik berishicha, “Ustrushonaning katta qismini tog'lar egallagan, unda kemalar suzib yurishi mumkin bo'lgan daryolar ham, ko'llar ham yo'q. Ustrushona davlati 18 ta rustoqqa bo'linib idora qilingan. Tekislikdagi rustoqlarga Bunjikat, Savat, Zomin, Hovas, Shovkat, Fankat, Xarakana kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пардаев М.Х. К вопросу об эволюции планировки замков- рабатов в Северо-Западной Уструшане // Тез, докл.науч.конф. посвящ.80-летию акад. Я.Г.Гулямова,-Т.: 1988. -С.72.[1]
2. Хужаназаров М. Наскальные изображения Ходжакента и Каракияся. Самарканд, 1995. С. 7,[2]
3. Хужаназаров М. Наскальные изображения Северо – Восточного Узбекистана. // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Л., 1985. – С.22.[3]
4. Шалатонин Б.С. Скалы открывают тайны // «Комсомолец Узбекистана», 4 сентября 1964. - С. 2; Ўша муаллиф. Тысяча уникамов Кызылкумов. - Навои, 1997. – С. 184; Ўша муаллиф. Тени на скалах. - Ташкент, 1999. - С. 183. [4]
5. Kabirov J. Ibtidoiy davr behzodlari // Fan va turmush. 1-son. –1970. - В. 9-11; О‘sha muallif. Древние наскальные изображения Каратау // Археологические открытия, 1970. - М., 1971. – С. 580; Ўша муаллиф. Наскальные изображения Сармишся // ИМКУ, вып. №9. - Ташкент, 1972. - С. 50-55.[5]
6. Шацкий Г.В. Рисунки на камне. - Ташкент, 1973, с. 88-89; Ўша муаллиф. Верблюд – продуктивное животное // Госиздат УзССР. – Ташкент, 1964. – С. 36-38; Ўша муаллиф. Сибирские каменные козлы на петроглифах // Узбекский биологический журнал АН РУз. – №2. – 1968. – С. 25-29.[6]